

SEHRGARNING TUHFASI(O'.Genri)

Adhamxonova Nilufarxon Kamolxon qizi
NamDChTI filologiya yo'nalishi 3- bosqich talabasi
adhamxonovanilufar@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur amerikalik yozuvchi O'. Genrining "Sehrgarning tuhfasini" hikoyasining Adhamxonova Nilufarxon Kamolxon qizi tomonidan amalga oshirilgan tarjimai havola etiladi. Asarda tarjima jarayonida badiiy matnning mazmuniy yaxlitligini saqlash, milliy-madaniy birliklarni adekvat ifodalash hamda muallif uslubini o'zbek tilida qayta yaratish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida hikoyadagi ramziy obrazlar, hissiy ifoda vositalari va badiiy detallar tarjimada qanday aks etgani qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tarjimon tomonidan qo'llangan leksik va stilistik yechimlarning badiiy-estetik ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalari badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotini o'rganishda, shuningdek, filologiya yo'nalishi talabalari va tadqiqotchilar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: O'. Genri, "Sehrgarning tuhfasini", badiiy tarjima, tarjima tahlili, milliy-madaniy birliklar, uslubiy moslik.

Bir dollar va sakson yetti sent. Bor puli shundan iborat va buning oltmish senti aqchalarda edi. Ularni birma-bir tejab, oziq-ovqat do'konidan, sabzavotfurush va salloxdan arzonga olishga uringanida, yuzini tejamkorlikdan kelib chiqadigan o'sha ko'zga ko'rinmas malomatning issig'i qoplab oladi, chunki bunday mayda-chuyda savdolashuvlar uni haddan tashqari ehtiyotkorlikda ayblayotganday tuyuladi. Della aqchalarini ketma-ket uch marta sanadi. Bir dollar sakson yetti sent. Keyingi kun Rojdetstvo bayrami.

Dellaning eski, kichik bir divanga cho'kib, o'kirib yig'lashdan boshqa chorasi qolmagandi. Xayolini hayotning yig'i-sig'i, tabassum va barchasidan ustunlik qiluvchi oh-vohlardan iborat degan axloqiy fikrlar chulg'ab olgan edi.

Uy bekasi ikkinchi qavatga zinalardan asta balandlayotganida, uyga nazar solaylik. Haftasiga sakkiz dollar turadigan, zeb bilan jihozlangan xonadon. U tavsifga muhtoj emas, biroq shubhasiz, qo'riqlash otryadi tomonidan tekshirib turiladigan joy ekanligi sezilib turardi. Pastda, keng vestibulda, biror xat sig'maydigan pochta qutisi va kimdir teginib ketsa ham "tiq" etmaydigan qo'ng'iroq tugmasi bor edi. Shuningdek, u yerda "Janob Dillingham Yang" nomi qayd etilgan karta ham ko'rinib turardi.

Mazkur nomning egasi avvalgi farovonlik paytida, haftasiga o'ttiz dollardan olganida "Dillingham" nomini qozongan edi, biroq, endi ana o'sha daromad yigirma dollarga qisqargan, shu sababli "DILLINGHAM" harflari xuddi biroz kamtarona va

oddiy "D" harfiga aylanishni reja qilayotgandek, xiralashib ko'rinardi. Lekin, janob Jeyms Dillingham uyiga kelganida uni "Jim" deb atashar va sizga biroz avval tanishtirilgan Della, ya'ni Jeyms xonim uni tabassum ila quchoq ochib kutib olardi. Bu holat esa ayni paytda hammaning ko'nglini yayratib, g'uborlarni ketkazardi.



Della yig'i-sig'idan holi bo'lgach, yanoqlarini asta ro'molchasi bilan artishga tutindi. U deraza ortidan bir kulrang mushukning kulrang panjara o'ralab odimlayotganini mahzun kuzatardi. Ertaga Rojdestvo bayrami va u Jimga sovg'a olish uchun atigi bir dollar, sakson yetti sentga ega edi. U oylar davomida pulining har bir tiyinigacha tejagan, natijasi esa qoniqarli ko'rinmasdi va darhaqiqat, bu pullar hattoki bir haftalik xarajatlarda ham biror arzirli urpoq bo'lmasdi. Xarjlar u o'ylagandan ko'ra ko'proq bo'lib chiqdi. Har doim o'zi shunday bo'lgan. Jim uchun sovg'a tanlash uning ichki olamida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. U har doim o'zining Jimga nisbatan chuqur his-tuyg'ularni his etgan va endi bu tuyg'ularni ifodalash vaqti kelgandi. Faqat bir dollar sakson yetti sent bilan Dellaning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, u o'zining samimiyligini va mehrini ifodalovchi biror narsa topishga qat'iy qaror qildi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, Jim uchun juda yaxshi va nodir, unga tegishli bo'lish sharafiga loyiq bir narsa kerak.

Xonadagi derazalar orasida kichik oyna bor edi. Ehtimol, bunday oyna arzon xonadonlarda kuzatilar. Nozik, nimkala va serharakat bir gavda oynada o'z aksini tez-tez kuzatar, o'zining qiyofasini aniq tasavvur eta olardi. Della xushbichim bo'lganligi sababli, bu san'atni mukammal egallagan edi.

Daf'atan, u derazaning yonidan burildi va oyna oldida to'xtadi. Ko'zlari porlab turardi, lekin chehrasi o'zining qizilligini oxirgi yigirma soniyada yo'qotdi, tezda u sochlarini bo'shatib, yozib yubordi.

Jeyms Dillingham Yang oilasi ikki narsa bilan qattiq g'urur-iftixorlanar edi: biri Jimning oltin soati (bu soatga o'z davrida otasi va bobosi ham egalik qilishgan), boshqasi esa Dellaning sochlari edi. Agarda, Sheba malikasi qo'shni xonadonda yashaganida, Della yuvilgan sochlarini quritish bahonasi-la derazadan chiqarar va bu yo'sinda go'yo malikaning bebaho zargarlik buyumlari, zeb-ziynatlarining oldida ularni ko'z-ko'z qilish orqali malikani ortda qoldirib, qadrsizlantirardi. Mabodo, Sulaymonshoh yerto'lada barcha xazinalarini to'playdigan eshik og'a bo'lganida ham, Jim shohning yonidan o'tganida azza-bazza soatini chiqarib, uning hasaddan qanday soqol olayotganini ko'rib, kishi sezmas dovrudan zavqlanardi.

Endi Dellaning bejirimgina sochlari yelkasiga to'lqinlanib, jigarrang suv sharsharasi kabi to'lqinlanar, ularning uzunligi tizzasidan pastga yetar va deyarli unga libosdek yarashib, go'zallikni yanada namoyon etishga urinardi. So'ngra u asabiy va tezkorlik bilan sochlarini yana yig'ishtirdi, negadir bir daqiqa tin olib, so'ng, ko'z yoshlari eskirgan, qizil palosga tomchilaganini his qildi.

Odmigina jigarrang ko'ylagi va eski, osor shlyapasini taqdi-da, yubkalarini uyoq-buyog'ini ko'zdan kechirganday bo'ldi. Eshikdan chiqib, zinapoyalardan g'izillagancha ko'chaga shoshilib chiqdi.

Birozdan so'ng u to'xtagan joyda "*Mme. Sofronie*" (Sochdan buyumlar yasash) deb yozilgandi. Della ichkariga halloslagancha yugurib kirdi va nafasini rostlab, qaddini rostladi. Xonim, novchadan kelgan, oppoq va albatta, sovuqqon, "*Sofronie*" ga umuman o'xshamasdi.



- Sochlarimni sotib olasizmi? - so'radi Della.

- Ha, albatta, - rozilik berdi, - Shlyapangizni yeching, sochlaringizni ko'rmoqchiman.

Jigarrang sharshara yer tomon yana asta yo'rg'ala boshladi.

- Yigirma dollar, - dedi xonim, sochlarni qabarib ketgan, tajribali qo'llar bilan ushlab ko'rarkan.

- Tezroq beraqoling, - dedi Della.

Keyingi ikki soat qizg'ish qanotlar ustida uchib o'tdi. Chaynalgan o'xshatishim uchun uzr so'rayman. U Jimga hadya olish uchun birma-bir do'konlarni izg'ib chiqdi.

Axiyri, nimadir topdi shekilli, bu narsa faqat Jim uchun yaratilganga o'xshardi, boshqa birov uchun emas. Della bir talay do'konlarga kirib chiqqan bo'lsa-da, bu hech biridagi zargarlik xomashyolariga o'xshamasdi. Platinadan yasalgan soat zanjiri, ko'rinishi sodda va pokiza, barcha durdona narsalar kabi nafaqat qiymati bezaklari bilan, balki o'z mohiyati bilan ham ajralib turardi. Soat zanjiri Jimga munosibligini bir ko'rishdayoq anglagandi, chunki, ko'rinishidan ham naq Jimning o'zi.

Jimga har narsa ham sakinat, ham qadr-qimmatni baxsh etishi muhim edi. Sotuvchiga yigirma bir dollar berdiyu, o'zida qolgan sakson yeti sent bilan ortiga shoshilib qaytdi. Zanjirli soatni taqqan Jim har qanday tashkilotda vaqtni o'ylab, xavotirlanishi mumkin. Soat qanchalik hashamatli bo'lmasin, u ko'pincha zanjirning o'rniga o'zining eski charm tasma-sini qo'yib ishlatgani uchun soatiga uyalinqira termulardi.

Della uyiga qaytgach, uning chopqirgan farahligi andak ehtiyotkorlik va aql-idrokka o'rnini bo'shatdi. Birozdan so'ng, sochini turmaklagan holda gazni yoqdi va muhabbatga qo'shilgan saxiylik tufayli yuzaga kelgan vayronagarchiliklarni qadrdon do'stlari bilan tuzatishga kirishdi.

Qirq daqiqa ichida uning boshi mayda, jozibona turmaklarga burkanishi uni ko'proq maktabning qochoq o'quvchisiga o'xshatdi. U uzoq vaqt qisman g'amxo'rlik hissi va tanqidiy nazar bilan ko'zguda o'z aksini kuzatdi.

-Agarda Jim meni bir ko'rishdayoq o'ldirib qo'ymasa,- dedi o'ziga o'zi, - ikkinchi marta ko'rganidan keyin, aniq meni Islandiyadagi Koney xorchisiga o'xshatar. Biroq, nima qila olardim, qo'limdagi bir dollar sakson yeti sent turganda boshqa qanday ilojim bor?

Soat yettiga bong urganda, qahva va tovadagi go'sht ham pishib, dasturxondan joy olishga ulgurgandi.

Jim hech qachon kechikmas edi. Della zanjirni qo'lida oshirib o'ynarkan, Jimning har doim kiradigan eshik yaqinidagi stul kunjakiga o'tirdi. Birozdan so'ng pillapoyaning birinchi pog'onasidan ko'tarilayotgan qadam tovushlarini eshitdi va bir lahzaga oqaribgina, qanotsiz qushlarday nima qilishini bilmay dong qotib qoldi. U odatda eng oddiy kundalik yumushlar ustida ham tinmay ibodat qilar, xudodan iltijo qilardi, hozir ham asta pichirladi:

- Xudoyo, xudovando, u men hali ham chiroyli ekanligimga ishonsin!

Eshik ochildi va Jim ichkariga kirib, eshikni yopdi. U juda oriqlik va jiddiylashtirish ko'rinar edi. Bechoraga atigi yigirma ikki yoshida bir oilani boqish mas'uliyati yuklangan edi. Uning egnidagi paltosi eskirgan, yangisini olishga qurbi yetmayotgandi va hatto, qo'llarida ham qo'lqoplar yo'q.

Jim eshik yonida to'xtab qoldi, go'yo bedanani hidini olgandek harakatsiz edi. Uning ko'zlari Dellaga tushdi va ularning ichida Della o'qiy olmaydigan bir ifoda bor edi va bu uni biroz hurkitdi. Bu g'azab ham, hayrat ham, norozilik yoki dahshatdan titrayotgan gavda ham emasdi, qisqasi, bular Della kutayotgan ifodalarning hech biri emasdi. U shunchaki o'ziga xos ifoda bilan Dellaga qarab turardi.

Della stol kunjakidan sakrab turdi va Jim tomon yuzlandi.

- Jim, azizim, - deya baqirdi u, - menga unaqa qarama. Men sochimni kesib sotib yuborishga majbur bo'ldim, chunki senga sovg'a bermasdan Rojdestvo bayramini kutish menga noqulay, sochlarim qayta yana o'sib chiqaveradi, hech vaqo demaysanmi? Meni o'zga ilojim yo'q edi axir, lekin ular tezda o'sadi. Jim, bayraming muborak va biz baxtli bo'laylik! Senga naqadar ajoyib, go'zal sovg'a olganimni tasavvur ham qilolmaysan.

- Sochingni kesib tashladingmi? - deb so'radi Jim vazmin ohangda, go'yo eng murakkab aqliy mehnatdan keyin ham haqiqat hali unga yetib bormagandek...

- Kesdim va sotdim, - dedi Della.

- Shunday bo'lsa nima, endi meni yaxshi ko'rmaysanmi? Men sochimsiz ham menman-ku, to'g'rimi?

Jim atrofga g'alati tarzda tikilib qoldi.

- Sen sochingni yo'qotganingni aytyapsanmi?, - so'radi ahmoqona tarzda to'ng'illab.

- Qidirib topishga hojat yo'q, sotdim, aytyapmanku, sotdim va u allaqachon ketib ham bo'ldi, endi Rojdestvo arafasi, menga yaxshi munosabatda bo'lganing ma'qul, chunki bu sening sharofating uchunligi nahot aqlingga sig'mayapti? Ehtimol, boshimdagi har tolalarni sanab bo'lar...- davom etdi u to'satdan jiddiy va muloyim ohang bilan aralash holda, - lekin hech kim mening senga bo'lgan muhabbatimni sanab sanog'iga yetolmaydi... Men qovurilgan go'shtni tayyorlayveraymi, Jim?

Jim o'z parishonlikdan tez uyg'ongandek edi. U Dellani mahkam quchoqladi, ularni qo'yib, o'n soniyaga boshqa tomonga o'ziga xos bir narsalarga diqqat bilan nazar tashlaylik. Haftada sakkiz dollarmi yoki yiliga bir millionmi - farqi nima? Matematik yoki hazilkash sizga noto'g'ri javobni berardi. Sehrgar qimmatbaho sovg'alar olib kelgan bo'lishiga qaramay, bu ular orasida yo'q edi. Bu qorong'u bayon keyinroq yoritiladi.

Jim paltosi cho'ntagidan paketni chiqardi va stol tomon tashladi.

- Meni noto'g'ri tushunma, Della, sochini kesish, kalga oldirish yoki uni yuvish sira meni ayolinga bo'lgan his-tuyg'ularimni o'zgartirolmaydi. Lekin agarda shu paketni ochsang, meni dastlabki hayratimning sababini bilib olishing tayin.

Oppoq va abjir barmoqlar ip va qog'ozni shoshilib yirtib tashladi. Birdaniga bari xursandchilik shunaqangi qichqirish bilan eshitildiki, asti qo'yaverasiz. Lekin afsuski...hushyor ayolning xursandchiligi o'rnini qanaqadir xunoblik yoki vahimalik egalladi, bu esa darhol uy bekasi tomonidan barcha tasalli so'zlarning sehrini ochishga majbur etdi.

Paketda bir talay taroqlar qalashib yotardi. Bu Della uzoq vaqt Brodvey derazasi yonida duo qilgan taroqlar, ancha vaqtdan buyon orzu qilgan toshbaqa qobiqli va jilo berilgan kunjaklar yo'qolgan sochlar uchun juda yarashardi. Ular qimmatbaho taroqlar edi, buni Della bilardi, lekin u orzusiga unchalik umid bog'lamagandi. Va hozir, taroqlar vanihoyat Dellaniki, biroq, ular bezashi kerak bo'lgan sochlar endi yo'q.

Lekin u ularni bag'riga mahkam bosib, axiyri rangsiz ko'zlar va jindak tabassum bilan:

- Mening sochim juda tez o'sadi, Jim!, - deb ayta oldi.

Keyin Della olovga teginib ketgan mushuk singari sakrab turdi va qichqirdi.

- Voy, sho'rim qursin!


Axir Jim hali o'zining sirli sovg'asiga ko'zi tushmagan edi. U hadyani kaftiga olib, quvonch bilan tutdi. Xira qimmatli metall uning yorqin va za'faron ruhi aksini yoritib turgandek edi.

- Jim, qara, naqadar ajoyib!? Uni topish uchun butun shaharning har bir burchini kezib chiqdim. Endi kuniga yuz marta vaqtga qarasang ham bo'laveradi. Eski soatingni olib, buni taqib ko'rgin, shunchaki qanday ko'rinishini bilishni xohlardim.

Jim Dellaning "qistashiga" qaramasdan divanga cho'kdi, qo'llarini boshining orqasiga qo'ydi va jilmaydi.

- Dell, -dedi u,- Hozircha Rojdestvo sovg'alarimizni yashirib qo'yganimiz ma'qul va vaqtning o'tishiga guvoh bo'laylik. Ular hozirgi paytgga ishlatish uchun juda qimmatli va nozikdir. Men eski soatni senga taroq olayin deb sotgandim...Endi qovurilgan go'shtni pishirsang yaxshi bo'lardi.

Sehrgarlar, siz bilgandek, dono odamlar edi - juda oqil odamlar - ular cho'ponlarga sovg'alar olib kelishgan edi. Ular Rojdestvo hadyalari berish tadorikini ixtiro qilishgan. Donishmandligini hisobga olgan holda, ularning hadyalari shubhasiz eng oqilona tanlov edi, ehtimol ayirboshlov imtiyozlari ham o'z ichiga olingandir va men sizga ikkita be'mani yoshlarning uyning eng katta xazinalarini bir-birlariga qurbon qiladigan oddiygina voqelikni hikoya qildim. Lekin bu davrning donolariga oxirgi so'z shunday bo'lsin: sovg'a beruvchilarning barchasidan bu ikki kishi eng donosi edi. Sovg'a beruvchi va qabul qiluvchilarning barchasidan ular eng donolari edi. Har yerda ular eng donolari. Ular sehrgar edi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Short Story: “The Gift of the Magi” Author: O. Henry (William Sidney Porter), 1862–1910 First published: 1905
2. Rasmlar SI yordamida muallif tomonidan tayyorlandi.